XALQ DEPUTATLARI KOGON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 27-fevral VII-8-37-2-208-K/25 Kogon shahar

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geofrafik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi tomonidan, shahardagi 22 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi 21 ta nomsiz ko‘chalar borligi aniqlanib, 21 ta nomsiz ko‘chalarga taklif etilgan nom O‘zbekiston Respublaikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilib, ekspertiza xulosasi tasdiqlangan.

Shaharda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar to‘g‘risidagi shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Shaydoyevaning axborotini muhokama qilib, mahalliy davlat to‘g‘risidagi Qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geofrafik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 24-yanvardagi 2/2-15-sonli Ekspertiza xulosasi hamda shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshrish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Shaydoyevaning axboroti qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Shahar ichki ishlar bo‘limi (A.Radjabov)ga:

mahallalardagi nomlangan va qayta nomlangan ko‘chalarga aholini ro‘yxatga qo‘yish va tegishli yo‘l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Shahar kadastr va shahar stasistika bo‘limlariga:

yangi nomlangan va nomi o‘zgargan geografik obyektlarni shahar xaritasiga joylashtirish, shuningdek tegishlicha shahar stastistika ma’lumotlariga o‘zgartirishlar kiritsin.

5. “Kogon hayoti” gazetasi tahririiyati (Z.Xalilova) hamda shahar hokimligi axborot xizmati rahbariga:

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni ommaviy-axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi J.Do‘stov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiyada raislik qiluvchi YANGIYEV ALIMJON XOSHIMOVICH

Xalq deputatlari Kogon shahar Kengashining
2025-yil 27-fevraldagi
VII-8-37-2-208-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Geofrafik obyektlarga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1. 2	Berk Ko‘cha	Abdulla Qodiriy mahallasi	Nomsiz1/1-berk	Yangi zamon
2.	Ko‘cha	Abdulla Qodiriy mahallasi	Nomsiz 1-ko‘cha	Yangi zamon
3.	Berk Ko‘cha	Beruniy mahallasi	Nomsiz	G‘ijduvon
4.	Ko‘cha	Beruniy mahallasi	Nomsiz 1-ko‘cha	Hunarmand
5.	Ko‘cha	Beruniy mahallasi	Nomsiz 2-ko‘cha	Ozod yurt
6.	Ko‘cha	Beruniy mahallasi	Nomsiz 3-ko‘cha	Ilg‘or
7.	Berk ko‘cha	Beruniy mahallasi	Nomsiz	Nurobod-2
8.	Berk ko‘cha	Beruniy mahallasi	Nomsiz	Tashabbuskor
9.	Berk ko‘cha	Do‘stlik mahallasi	Nomsiz	Arabxona-2
10.	Berk ko‘cha	Do‘stlik mahallasi	Nomsiz	Arabxona-3
11.	Berk ko‘cha	Furqat mahallasi	Nomsiz 1/1-berk	Parvoz
12.	Ko‘cha	Furqat mahallasi	Nomsiz 1-ko‘cha	Parvoz
13.	Ko‘cha	Furqat mahallasi	Nomsiz 2-ko‘cha	Samo
14.	Berk ko‘cha	Maxtumquli mahallasi	Nomsiz	Qarshi
15.	Ko‘cha	Mirzo Ulug‘bek mahallasi	Nomsiz 1-ko‘cha	Ulug‘vor
16.	Tor ko‘cha	Mirzo Ulug‘bek mahallasi	Nomsiz	Shukrona-4
17.	Tor ko‘cha	Mustaqillik mahallasi	Nomsiz	Yuksalish
18.	Berk ko‘cha	Navzirabod mahallasi	Nomsiz	Firdavsiy-2
19.	Ko‘cha	Turkiston mahallasi	Nomsiz 1-ko‘cha	Barkamol avlod
20.	Berk ko‘cha	Ziyokor mahallasi	Nomsiz	Ziyokor-4

21.	Berk ko‘cha	Ziyokor mahallasi	Nomsiz	Ziyokor-5